



## MEANS OF EXPRESSION OF LINGUO-PRAGMATIC PURPOSE AND ACTION IN EPISTOLARY TEXT

**Khabibova Manzila Nuriddinovna**

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, teacher of the English language department

e-mail: [khabibovamanzils@gmail.com](mailto:khabibovamanzils@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124411>

### ARTICLE INFO

Received: 30<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 06<sup>th</sup> May 2024

Online: 07<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*Linguo-pragmatics, linguo-pragmatic purpose, speech act, epistolary style, epistolary text, biographical work.*

### ABSTRACT

*The article analyzes the means of expressing linguo-pragmatic goals and actions in epistolary texts in biographical works. In addition, the linguo-pragmatic potential of epistolary technique examples in biographical works is interpreted as the pragmatic influence of language, the expressive use of linguistic means by the author of the epistolary text, directed to a specific goal. General principles of linguopragmatics, classifications given to linguopragmatics and the theory of scientific research are also described.*

## СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОЙ ЦЕЛИ И ДЕЙСТВИЯ В ЭПИСТОЛЯРНОМ ТЕКСТЕ

**Хабибова Манзила Нуриддиновна**

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, преподаватель кафедры английского языка

электронная почта: [khabibovamanzils@gmail.com](mailto:khabibovamanzils@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124411>

### ARTICLE INFO

Received: 30<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 06<sup>th</sup> May 2024

Online: 07<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*Лингвопрагматика, лингвопрагматическая цель, речевой акт, эпистолярный стиль, эпистолярный текст, биографическое произведение.*

### ABSTRACT

*В статье анализируются средства выражения лингвопрагматических целей и действий в эпистолярных текстах биографических произведений. Кроме того, лингвопрагматический потенциал примеров эпистолярной техники в биографических произведениях трактуется как прагматическое воздействие языка, экспрессивное использование автором эпистолярного текста языковых средств, направленное к определенной цели. Также описаны общие принципы лингвопрагматики, классификации лингвопрагматики и теория научного исследования.*



## EPISTOLYAR MATNDA LINGVOPRAGMATIK MAQSAD VA HARAKATNI IFODALANISH VOSITALARI

**Khabibova Manzila Nuriddinovna**

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

e-mail: [khabibovamanzils@gmail.com](mailto:khabibovamanzils@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124411>

### ARTICLE INFO

Received: 30<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 06<sup>th</sup> May 2024

Online: 07<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

Lingvopragmatika,  
lingvopragmatik maqsad,  
nutqiy akt, epistolyar uslub,  
epistolyar matn, biografik asar.

### ABSTRACT

Maqolada biogrtafik asarlarda epistolyar matnda lingvopragmatik maqsad va harakatni ifodalanish vositalari tahlil etilgan. Bundan tashqari, biografik asarlardagi epistolyar texnika namunalarining lingvopragmatik potentsiali tilning pragmatik ta'sir kuchi sifatida epistolyar matn muallifining lisoniy vositalardan o'rinli va muayyan maqsadga yo'naltirilgan holda ifodali qo'llanilishi talqin qilingan. Shuningdek, lingvopragmatikaning umumiy tamoyillari, lingvopragmatikaga berilgan tasniflar va ilmiy tadqiqotlar nazariyasi bayon qilingan.

**KIRISH.** Biografik asarlardagi epistolyar matnning madaniyatlararo muloqot vositasi, nutq akti sifatida pragmatik xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda nafaqat tilshunoslik fanining, balki unga tutash bo'lgan tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik, jamiyatshunoslik, madaniyatshunoslik, ruxshunoslik kabi fanlarning tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. Biografik asarlardagi epistolyar texnika namunalarining lingvopragmatik potentsiali tilning pragmatik ta'sir kuchi sifatida epistolyar matn muallifining lisoniy vositalardan o'rinli va muayyan maqsadga yo'naltirilgan holda ifodali qo'llashni taqozo qiladi. Bu epistolyar matnning pragmatik mazmunini tashkil qilgan. Har qanday tildagi epistolyar matn pragmatikasi fonografik, leksik, sintaktik, umummatniy lisoniy vositalar orqali ifodalanish bilan bir qatorda shu asar yozilgan tilga mansub verbal va noverbal, emotsional ekspressiv va baholovchi funksiyalarni bajaruvchi milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan.

"Pragmatika" atamasi ilmiy tadqiqotlar nazariyasiga amerikalik olim Charlz Morris tomonidan kiritilgan. U S.Pirsning bu boradagi qarashlarini yanada rivojlantirib semiotikani lisoniy belgilarni o'rganuvchi fan sifatida uch bo'limga: lisoniy belgilarning bir -birlariga munosabatini o'rganuvchi sintaktika, lisoniy belgilarning ob'ektlarga munosabatini o'rganuvchi semantika va til belgilarining so'zlovchi va tinglovchi munosabatlarini o'rganuvchi pragmatikaga bo'lib o'rganish g'oyasini ilgari surgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Pragmatikaning umumiy tamoyillari G.Leech (1983), S.Levinson (1984), N.D.Arutyunova (1985), Ye.Ye.Paducheva (1985), I.P.Susov (1999) va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Bu o'rinda pragmatikaga berilgan tasniflarning turli-tumanligini, ammo ularning barchasi Ch.Morris tomonidan aniqlangan «lisoniy belgining asosiy xususiyatlaridan biri – gapiruvchi (epistolyar matnlarning muallifi)



va tinglovchi (maktub yoki epistoliar matn qaratilgan shaxs) munosabatlarini ifodalashdir» - degan umumiy konsepsiyaga asoslangan. Epistoliar matnning lingvistik pragmatikasi «lisoniy belgi - undan foydalanuvchi» zanjiriga bog'liq bo'lgan barcha lisoniy hodisalarni o'rganadi. Uning tadqiqot ob'ekti sifatida nutq sub'ekti, muallif va tinglovchi(resipient), ularning muloqot jarayonidagi o'zaro munosabatlari, bu munosabatlarga nutq vaziyatining ta'siri kabi kompleks masalalarni o'z ichiga olgan. Bu o'rinda lingvistik pragmatikaning eng muhim tushunchasi inson faktori ekanligi barcha tadqiqotlarda tan olinadi. [Stepanov (1981); Arutyunova (1985); Buligina (1981); Galperin (2004)].

Binobarin, epistoliar texnikaning pragmatikasi asardagi epistoliar matn muallifi tomonidan lisoniy belgilardan foydalanishining barcha shart-sharoitlarini, vaziyatlarini o'rganishni ko'zda tutgan. Shart-sharoitlardan, vaziyatlardan foydalanish deyilganida, lisoniy vositalardan ularga mos keladigan, adekvat vositalardan foydalanish, bu orqali suhbatdoshga kommunikativ ta'sir qilish usul va vositalari tushuniladi. Bunday shart-sharoitlarni o'rganish pragmatik ta'sirning lisoniy va nolisoniy, implitsit shakllarini o'rganish nuqtai nazardan nafaqat epistoliar matn lingvopragmatikasini o'rganuvchilar uchun, balki bunday lingvopragmatik xususiyatlarni tarjimada berilishini o'rganish uchun ham boy faktik materiallar bera olgan. Binobarin, leksik birliklarning epistoliar matnda, nutqda funksiyaga kirishuviga doir masalalar tahlil qilib chiqilgan va u tilni epistoliar namunalarida qo'llash, bunda so'z tanlash, undan ijtimoiy munosabatlarda foydalanish qoidalarini, nutq ishtirokchilariga nutqiy ta'sir qilish usullari o'rganilgan.

**NATIJA.** "Lisoniy birlik ifodalaydigan kommunikativ maqsad, munosabat, harakat va ularning emotiv, voliyuntativ, appelyativ, munosabat o'rnatuvchi va estetik funksiyalari qo'shimcha (konotativ) ma'no, pragmatik ma'no sifatida ham talqin qilinadi"<sup>1</sup>. [1, 83-91]

Epistoliar matn muallifining nutqi qaratilgan shaxs yoki kitobxonning diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'liqlantirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilinadi. Shunday qilib so'z ifodalaydigan qo'shimcha ma'noni qo'llash kommunikativ-pragmatik ehtiyojlar tufayli ro'y beradi. Muallif yoki so'zlovchi leksik ma'noni adresatga (muallifning nutqi qaratilgan shaxs) ta'sir qilish uchun qo'shimcha, ko'pincha nostandart (noodatiy) ma'noda qo'llab, ko'zda tutilgan maqsadga erishuvni nazarda tutadi. Bu jarayon so'zning semantik ma'nosi imkoniyatlaridan pragmatik maqsadga foydalanish tufayli ro'y beradi. Lingvopragmatikaning asosiy aspektlarini aniqlashda til vositalarini tanlovchi gapiruvchi(muallif) va tinglovchi(kitobxon) tushunchalari ularning ijtimoiy mavqelari(statuslari), kommunikativ aktdagi shart-sharoitlar, suhbatdoshlar nutqining bir-birlariga ta'siri birinchi planga chiqadi. Shu nuqtai nazardan lingvopragmatik tahlilda epistoliar matnlardagi diskurs, gapiruvchi shaxsning nutqdan ko'zda tutgan maqsadi, uning suhbatdoshiga ta'siri, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar singari omillar aniqlanadi.

**TAHLIL.** Lingvopragmatik ma'no (konnotatsiya) shuningdek nutq vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, suhbatdoshlarning o'zaro yaqinligi, ijtimoiy mavqelari, emotSIONAL holatlari,

<sup>1</sup> Арнольд, И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982.- №4.-С. 83-91.



fon bilimlari darajasi, muloqot presuppozitsiyasi, bu jarayondagi implekatura, referensiya, inferensiya singari pragmatik parametrlar orqali aniqlanadi. Shunday qilib, epistolyar matn lingvopragmatikasi nutqiy akt jarayonini, unda suhbatdoshlarning muloqot maqsadlarini ifodalanish vositalarini, bu nutqiy akt sodir bo'layotgan vaqt va makonni, muloqotga suhbatdoshlarning fon bilimlari darajalarining va ularning ijtimoiy mavqelarining ta'sirini, muloqotga suhbatdoshlarning psixologik va biologik xususiyatlarining ta'siri, muloqot jarayonidagi xulq-atvorlari va muayyan jamiyatda umum qabul qilingan muloqot odobi qoidalariga rioya qilish darajalarini o'rganadi. Muloqot jarayonida kommunikantlar o'z suhbatdoshiga (nutqi qaratilgan shaxsga) u yoki bu darajada kommunikativ ta'sir qilish maqsadida u yoki bu lisoniy kodlardan foydalanganlarida, nafaqat lisoniy vositalardan, balki kerak bo'lsa ekstralingvistik, ensiklopedik omillardan, lisoniy birliklar orqali ifodalangan emotsional ta'sir vositalardan ham foydalanadilar. Tilshunoslikda kommunikantlarning muloqot jarayonida qo'llaydigan lisoniy vositalardan foydalanish darajasi ularning fon bilimlari darajasiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi va ular lingvistik, ekstralingvistik va ensiklopedik bilimlar deya ta'riflanadi.

Nutqiy akt nazariyasining asoschilaridan biri J.Ostinning fikricha, har qanday fikr talaffuz qilinganida yoki matnda ifodalanganida o'z ma'nosi ifodasidan tashqari, ma'lum bir harakatni ham ifodalaydi, ya'ni biror bir voqea haqida darak-xabar beradi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi yoki buyruq, maslahat, ruxsat beriladi, va'da yoki taklif qilinadi hamda takalluf, minnatdorchilik izhor qilinadi va hakoza. Bularning barchasi kommunikantlarning, asar muallifining pragmatik maqsadi deya yuritiladi. Demak, nutqiy akt kommunikantlar fikrining aniq bir maqsadda va muhitda og'zaki yoki yozma shaklda voqelanishidir. Nutqiy akt lisoniy va ekstralingvistik vositalar orqali voqelanadi va tadqiqotchilarning juda ko'pchiligi nutqiy akt uch bosqichli lokutiv, illokutiv va perllokutiv xarakatlardan tashkil topishini e'tirof etishadi. [2, 22]. Nutqiy akt lisoniy va ekstralingvistik vositalar orqali voqelanadi va nutqiy akt uch bosqichli lokutiv, illokutiv va perllokutiv xarakatlardan tashkil topishi e'tirof etiladi. [Ostin, 1986].

Lokutiv nutqiy harakat deyilganida, birinchi suhbatdosh tomonidan kommunikativ maqsaddan kelib chiqib ikkinchisiga biror fikrning, axborotni uzatilishi, axborotni qabul qilinish jarayoni tushuniladi. Lokutsiya – «eshittirmoq, uzatmoq, tinglamoq, qabul qilmoq» ma'nolarini anglatadi. Lokutiv xarakter og'zaki nutqda dialog shaklida, yozma matnda muallif fikrining kitobxonga uzatilishi, personajlar dialogi sifatida vujudga keladi, epistolyar texnika namunasi bo'lgan maktublar matnida kommunikativ maqsaddan kelib chiqib, retsipientga fikrini yetkazish jarayoni tushuniladi. Binobarin, lokutiv harakat yozma nutqda reallashadi. Masalan, maktublarda xat muallifi lisoniy birliklar orqali istagini ifodalaydi. Shu bilan birga, bayon etilgan fikrlarda illokutiv harakat ham mavjud bo'ladi. U xat muallifining retsipientga ko'rsatayotgan iltifotini, izzat-hurmati va munosabati singari illokutiv harakatni, xat muallifning kommunikativ maqsadini ifodalamoqda. O.G.Pochepsovning ta'rificha, illokutiv harakatning ijrochilari so'zlovchi yoki matn muallifi bo'lib u nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladi [Pochepsov 1986:24]. Z. Vendler talqinicha, illokutiv maqsad «mental harakat bo'lib, so'zlovchi tinglovchini ushbu harakatni bajarishga undaydi». [Vendler 1985:243] Nutqiy harakat kommunikativ mazmunining to'liq voqelanishi uchun maqsaddan tashqari, unga



erishishni ta'minlovchi vosita va shart-sharoit bo'lishligini ham talab qilinadi. J.Serl va D.Vandervekenlar nutqiy xarakterning illokutiv kuchini yetti qismdan tarkib topgan shart-sharoitlar sifatida ta'riflaydilar. Ulardan birinchisi kommunikativ maqsad bo'lib, bunday maqsadsiz nutqiy harakat vujudga kelmaydi. Keyingilari illokutiv maqsadga erishish usul va vositalari, illokutiv kuchning voqelanish jadalligi, voqelanishni ta'minlaydigan propozitsion, haqqoniylik kabi mental shart-sharoitlardir. [Searle, Vanderveken 1985]. Illokutiv kuch qismlarining tuzilishi mantiqiy tartibga ega va bu tartib illokutiv harakatning mustaqilligini ta'minlab, uning propozitsiya aktisiz bajarilishiga ham imkoniyat yaratadi.

Nutqiy harakat strukturasi uchun, yakuniy bosqichi perlokutiv akt bo'lib, u nutqiy ta'sirning natijasi sifatida ta'riflanadi. Binobarin, perlokutiv akt so'zlovchi tomonidan tinglovchiga biror javob xarakterga undash maqsadida amalga oshiriladi. Nutqiy ta'sir darajasini avvaldan aytish qiyin, so'zlovchi fikrini eshitgan (lokutsiya), o'qigan tinglovchining bo'lg'usi hatti-harakati, javobi turlicha bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan nutqiy muloqot aktining maqsadi ikki sathlidir, ya'ni birinchi sathda so'zlovchining maqsadi axborot yetkazish yoki olishdir. Ikkinchi sathda so'zlovchi va tinglovchining talabini, qiziqishini qondirish maqsadi ham nazarda tutiladi. Bunday harakat va maqsad darak, so'roq, undov mazmunli bo'lishi mumkin. Bu esa muloqot jarayonida pragmatik vazifaning kommunikativ maqsad doirasida bajarilishidir.

**MUHOKAMA.** Nutqiy aktlar borasidagi tadqiqotlar keyinchalik Dj. Serl, D. Vanderveken (Searle, Vanderveken, 1985), Dj. Versuren (Verschueren, 1980), D. Vunderlix (Wunderlich, 1976), Dj. Lich (Leech, 1963), T. van Deyk (Dijk, 1981), K- Bax va R. Xarnish (Bach, Harnish, 1980), G. G. Pochevsov (1981), Yu. D. Apresyan (1986), N. D. Arutyunova, Ye. V. Paducheva (1985), I. P. Susov (1985) Sh.Safarov(2008) tadqiqotlarida yanada rivojlantirildi va ularda nutq aktlarining bir-birlaridan farq qiluvchi turlicha tasniflari keltiriladi. Nutq aktlarini ifodalovchi barcha lisoniy vositalarni aniqlash vazifasi ilk bora T. Ballmer va V. Brennenshtul tadqiqotida amalga oshirildi [Ballmer, Brennenstuhl, 1980]. Ular ingliz tilidagi nutq aktida eng ko'p qullaniladigan 4800 fe'lni har tomonlama, ko'p qirrali tasnif qilishib, lug'at sifatida nashr qilishdi. Shundan so'ng A.Vejbiskayaning ingliz tilidagi nutq aktida ishtirok etadigan fe'llarning semantik lug'ati chop qilindi va unda barcha fe'llar 37 ta guruhga bo'lib tasnif qilindi [Wezbicka, 1987]. Keyinchalik bu yo'nalishda Dj Serl va D. Vandervekenlarning tadqiqotida nutq akti nazariyasi yanada takomillashtirildi va illokutiv mantiqlashning asoslari yaratildi [Searle, Vanderveken, 1980].

V.N. Komissarovning ta'kidlashicha, nutqiy muloqotda pragmatik munosabatlarning uchta turi ishtirok etadi. Bular birinchidan, axborotning manbai (axborot uzatuvchi, gapiruvchi yoki yozuvchi) orqali ifodalayotgan pragmatik munosabatlar bo'lib, bunday pragmatik munosabat axborot uzatuvchining niyati va maqsadini, uzatilayotgan axborotga shaxsiy munosabati va retseptorga nisbatan rejalashtirilgan ta'sirni yz ichiga oladi. Pragmatik munosabatlarning ikkinchi turi lisoniy birlik ifodalayotgan pragmatik ma'noni qamrab olgan matnda (fikr, jumla) o'z ifodasini topadi. Uchinchi tur pragmatik munosabat axborotni qabul qiluvchi shaxsning (retseptor, tinglovchi, kitobxon) matn orqali anglagan axborotga pragmatik munosabatidir. Uning bunday munosabatida axborotni idrok qilish jarayoni, bu axborotga yoki uning uzatuvchisiga munosabati o'z aksini topadi. [Komissarov 2004:226].



Epistolary matnda lingvopragmatik maqsad va harakatni ifodalanish uchun quyidagi vositalar foydalaniladi:

- Epistolary matnlarda tilning so'zlashuvchi maqsadi aniqlanishi uchun matnning umumiy mazmuni tahlil qilinadi.
- Epistolary matnda tilning pragmatik maqsadi, ya'ni qanday harakat yoki natija olish maqsadi aniqlanishi uchun matnning konteksti va tilining shakli tahlil qilinadi.
- Epistolary matnni tahlil qilishda harakatni ifodalanish uchun quyidagi vositalar foydalaniladi:
  - Tilning sintaksisini va grammatikasini tahlil qilish.
  - Tilning leksikasi va frazeologiyasini tahlil qilish.
  - Tilning stilistik xususiyatlarini tahlil qilish.
  - Matnning konteksti va muharriri tomonidan ko'rsatilgan maqsadlarni tahlil qilish.

Bu vositalar yordamida epistolary matnlarda lingvopragmatik maqsad va harakatlarni aniqlash va tushuntirish mumkin bo'ladi. Biografik asarlardagi epistolary matnlarda madaniyatlararo muloqot vositasi, nutq akti sifatida pragmatik xususiyatlarini o'rganish uchun quyidagi elementlarga e'tibor qaratish kerak:

- Epistolary matnlarda xat muallifi va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabatlar, ularning do'stlari yoki yaqinlari bo'lishi mumkinligi, munosabatlarning shaxsiylik va hurmatni ifodalash shakllari, mazkur munosabatlarni kuchaytirish va o'zgartirish uchun qo'llaniladigan so'zlar va ifodalar muhimdir.
- Epistolary matnni yozishda yozuvchining maqsadi va qabul qiluvchiga yetkazilishi kerak bo'lgan maqsadlar muhimdir. Bu maqsadlar odatda yozuvchi tomonidan belgilanadi va matnda boshqa insonlarga yetkazilishi kerak bo'lgan xabarlar, so'zlar yoki takliflar orqali ifodalangan.
- Biografik epistolarda shaxsiylikning ifodasi, o'z-o'zini ifodalash, insoniy xususiyatlarni taqdim etish, madaniyatlararo muloqotlarda ishtirok etish, adabiyot va san'atga oid mavzularni muloqot etish kabi xususiyatlar pragmatik tahlil uchun muhimdir.
- Epistolary matnni yozishda tilning uslubi, xat muallifining usullari, stilistik xususiyatlari (masalan, samimiylik, hurmat, tabiatshunoslik, san'atni iste'mol qilish) lingvopragmatik tahlil uchun muhimdir.
- Biografik asarlardagi epistolary matnda muallif o'zining nutq aktini ifodalash, shaxsiy fikrlarini, hissiyotlarini, tajribalarini, xayollari va maqsadlari bilan bog'liq nutq aktini o'zlashtirishi lingvopragmatik tahlil uchun muhimdir.

**XULOSA.** Shunday qilib, biografik asarlardagi epistolary matnlar lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash uchun muallif va qabul qiluvchi munosabatlari, maqsadlar, shaxsiylik va madaniyatlararo aloqa, tilning uslubi va stilistik xususiyatlari, o'ziga xos nutq akti kabi elementlarga e'tibor berish lozim. Bu xususiyatlar yordamida epistolary matnlardagi pragmatik maqsad va harakatlarni tushuntirish mumkin bo'ladi. Epistolary matnlarda shaxsiylikning ifodasi, o'z-o'zini ifodalash, insoniy xususiyatlarni taqdim etish, madaniyatlararo muloqotlarda ishtirok etish, adabiyot va san'atga oid mavzularni muloqot etish kabi xususiyatlar lingvopragmatik tahlil uchun muhimdir. Epistolarni yozishda tilning uslubi, so'zlashuvchi usullari, stilistik xususiyatlari (masalan, samimiylik, hurmat,



tabiatshunoslik, san'atni iste'mol qilish) pragmatik tahlil uchun muhimdir. Shu bilan birga, epistolaryar matnni yozishda tilning uslubi, so'zlashuvchi usullari, stilistik xususiyatlari (masalan, samimiylilik, hurmat, tabiatshunoslik, san'atni iste'mol qilish) hamda muallifning nutq aktini ifodalash, shaxsiy fikrlarini, hissiyotlarini, tajribalarini, xayollari va maqsadlari bilan bog'liq nutq aktini o'zlashtirishi lingvopragmatik tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## References:

1. Арнольд, И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982.
2. Арнольд КВ. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность. Сб. статей. Спб, 1999.
3. Остин Дж.Л. Слово как действие. В.кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. –М.: Прогресс, 1986. С.22-130.
4. Вандервекен Д. Небуквальные речевые акты. В кн.: Концептуализация и смысл. Новосибирск: Наука, 1990.-с.31-61.
5. Вендлер З.Иллокутивное самоубийства. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16. Лингвистическая прагматика. –М.: Прогресс, 1985.- С.238-250.
6. Почепцов Г.Г.Коммуникативные аспекты семантики.-Киев: Высшая школа. 1987. - 131 с.
7. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. –Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediasi, 2008. -285 b.
8. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов. В.кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. –М.: Прогресс, 1986. С.170-194.
9. Khajieva Feruza Melsovna. Genesis and development of stylistic devices classifications // Filologiya masalalari. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2020, –No3 –P. 30-38. <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2020/iss3/6/12>.
10. Khajieva Feruza Melsovna. Theoretical aspects of the language learned (Stylistics). Bukhara: Durdona, 2020. –196 p.
11. Khajieva Feruza Melsovna, & Rajabova Zebiniso Anvarovna. (2023). THE LITERARY EMBODIMENT OF FLORA IN LAILA LALAMI'S BIOGRAPHICAL NOVEL "THE MOOR'S ACCOUNT". International Journal Of Literature And Languages, 3(02), 82-90. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue02-15>
12. Khajieva Feruza Melsovna, Gayratova Dilnora Gayrat Qizi, EUPHEMISM IN ORIGINAL AND TRANSLATION (IN THE EXAMPLE OF JACK LONDON'S NOVEL MARTIN EDEN) , International Journal Of Literature And Languages: Vol. 3 No. 04 (2023): Volume03 Issue04
13. Xajieva Feruza, & Saidova Nilufar. (2023). POINT OF VIEW IN JAY PARINI'S BIOGRAPHICAL NOVEL "THE LAST STATION". International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 45-51. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue03-09>
14. Habibova, M. N. (2021). Jorjina Houellning "Queen of the desert" biografik asarida gertruda Bell timsoli tasviri. Academic research in educational sciences, 2(2), 770-778.
15. Habibova, M. N. (2021). The theme feminism in the epistolary novels in modern times. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 1101-1105.



16. Habibova, M. N. (2022). THE HISTORY OF THE RUSSIAN EPISTOLARY NOVEL IN EIGHTEENTH CENTURY. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2 (3), 135–139.
17. Habibova, M. N. (2022). EVALUATIVE OBSERVATION ON DH LAWRENCE'S EPISTOLARY ACHIEVEMENT. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2 (4), 489–494.
18. Habibova, M. (2022). THEORIES OF INTERTEXTUALITY AND THE BASIC FRAMEWORK OF KRISTEVA'S FORMULATION OF HER THEORY OF INTERTEXTUALITY. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(5), 301-307.
19. Habibova, Manzila Nuriddinovna (2022). A BIOGRAPHY IS A SPECIALIZED FORM OF HISTORY AND BASIC TYPES OF BIOGRAPHIES. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (5), 495-503.
20. Habibova, M. N. (2022). Epistolary Novel as a Scientific Problem. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 211–214. Retrieved from <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1575>
21. Habibova, M. N. (2022). The Epistolary Form and Art in Modernist Literature. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 206–210. Retrieved from <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1574>
22. Habibova, M. . (2022). WRITING THE NOVEL OF LETTERS AND THE ANALYSIS OF LETTER FICTION AND DIARY FICTION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 2(11), 260–264. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/317>
23. Habibova, M. . (2022). EPISTOLARY NARRATOLOGY AND CITATIONS FROM AN EPISTOLARY SOURCE: SAMUEL RICHARDSON'S PAMELA AND CLARISSA AND FRANCES BURNEY'S EVELINA. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 1131–1135. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/6655>
24. Manzila Nuriddinovna Khabibova. (2022). JOYCE'S DEVELOPMENT AS AN AUTHOR AND HIS EXPERIMENTS WITH THE EPISTOLARY FORM. American Journal Of Philological Sciences, 2(11), 73–81. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume02Issue11-10>
25. Manzila Nuriddinovna Habibova. (2022). LETTER WRITING AS ALLEGORY FOR THE WOMAN WRITER. American Journal Of Philological Sciences, 2(11), 88–92. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume02Issue11-12>
26. Хабибова, М. Н. (2022). ЭПИСТОЛЯРНЫЙ РОМАН КАК НАУЧНАЯ ПРОБЛЕМА. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 394–402. Retrieved from <http://academics.uz/index.php/rnsr/article/view/1379>
27. Habibova, M. N. . (2023). Origins of the Epistolary Novel and the Principal Epistolary Works. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(2), 70–74. Retrieved from <https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1159>
28. Khabibova, M. N. . (2023). The Historical Influence of the Epistolary Novel. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(2), 75–79. Retrieved from <https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1161>





29. Habibova, M. (2023). SPECIFIC POSSIBILITIES WRITING TECHNIQUES USED IN EPISTOLARY FORM AND THEIR EFFECTS ON BOTH THE CHARACTERS AND READERS. Eurasian Journal of Academic Research, 3(5),172–177.Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/14085>
30. Habibova, M. (2023). EPISTOLARY COMPARISONS AND TRENDS. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 330–338. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/16170>
31. Manzila Nuriddinovna Habibova. (2023). THE CONCEPT OF THE WHITE MAN'S SUPERIORITY AND THE PORTRAYAL OF THE ARABIC CHARACTERS IN "THE LAWRENCE OF ARABIA" AND "THE SEVEN PILLARS OF WISDOM". Academia Repository, 4(10), 24–31. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/96>
32. Habibova, M. N. (2023). Letter Fiction and Diary Fiction. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 153–158. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1386>
33. Habibova, M. N. (2023). Women and the Epistolary Novel. American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750), 1(9), 119-124.
34. Manzila Nuriddinovna Habibova. (2024). Pragmatics of Epistolary Technique Used in Biographical Works. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(2), 135–139. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/3061>
35. Habibova, M. (2023). PRAGMATICS AND COGNITION. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 90-96.
36. Habibova, M. (2023). TE LAWRENCE AND ARAB NATIONALISTS IN THE OTTOMAN EMPIRE. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH 2 (20), 183-193
37. Habibova, M.N. (2024). THE EPISTOLARY TRADITION AND ITS CONNECTION BETWEEN LETTER WRITING AND THE ARTISTIC PROCESS. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS 2 (24), 192-198
38. Habibova, M.N. (2024). THE ROLE OF PRAGMATICS IN BIOGRAPHICAL WORKS. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM 2 (22), 223-229